

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 29-30 (67298-99)  
2020-yil 10-avgust

UYDA QOLING!



www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

## USHBU SONDA:

ABITURIYENT QIZ BIR  
YO'LA **33** TA OLIYGOHGA  
O'QISHGA KIRDI **2**-bet

«Boyligni  
bolalikdan  
asrang»  
tanloviga **5**-bet

**YAXSHI MUOMALA –  
baxt-u  
saodatning kaliti** **11**-bet

## «BIR MILLION O'ZBEK DASTURCHILARI»

tanlovining 6 nafar g'olibidan 4 nafari maktab o'quvchilari



Asadbek Ro'ziyev poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 225-umumta'lim maktabining 9-sinfini a'lo baholarga tamomladi. Uning qiziqishlari dasturlash, robototexnika hamda origami hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus bo'yicha turli to'garaklarda, sport musobaqalarida, dasturlash kurslarida qatnashib, ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Xususan, 2019–2020-o'quv yili

mobaynida ko'plab nufuzli tanlovlarda g'olib bo'lishga erishdi.

Yaqinda XTB, AKT vazirligi, IT Park hamda Dubai Future Foundation bilan hamkorlikda «One Million Uzbek Coders» loyihasi doirasida tanlov tashkil qilingandi. Bu tanlovda 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida Asadbek faxrli o'rin sohibi bo'ldi va 500 dollar bilan mukofotlandi.



Suratda: Asadbek RO'ZIYEV  
5-sinfda o'qiydigan ukasi,  
robototexnika yo'nalishi  
g'olibi Asilbek bilan.

artel  
ИСЛОМ КАРИМОВ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ  
ТЕХНИКА УНИВЕРСИТЕТИ  
«РОБОТ-ЎЗ 2020» РОБОТОТЕХНИКА ТАНЛОВИНИНГ  
1-ЎРИН СОХИБИГА  
**2 000 000**  
СУМ



# ABITURIYENT QIZ BIR YO'LA 33TA OLIYGOHGA O'QISHGA KIRDI

**«O'zbekistonlik abituriyent qiz bir yo'la 33 ta oliygoonga o'qishga kirdi». Bu quvonchli xabarni eshitib, aynan shu qiz muvaffaqiyati siri nimada ekaniga «Tong yulduzi» muxlislari ham qiziqayotgani bois, Gulruxbonu bilan yaqindan tanishmoqchi bo'ldim:**

– Oilada 3 farzandimiz, men, singlim va ukam, – deydi Gulruxbonu. – 6 yoshga to'lmadanoq Yunusobod tumanidagi 273-umumta'lim maktabining birinchi sinfida o'qishni boshladim. Ungacha 498-maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachilarimdan «Alifbe», yozuvni, matematikani o'rganib olgandim. Birinchi ustozim Qutbiniso opani mehr bilan tilga olaman. Boshlang'ich sinfni tugatgach, ta'limni Yunusobod tumanidagi 250-umumta'lim maktabida davom ettirib, bu yil 11-sinfni «Oltin medal» bilan bitirdim. Ona tili va adabiyot fani ustozim, sinf rahbarimiz Marhabo Mirzayeva 5-sinf-dan boshlab meni «Bilimlar bellashuvi», fan olimpiadalariga tayyorlab bordilar. Buvijonim – Aziza Shokirova 37 yil 169-umumta'lim maktabida muallim bo'lib ishlaganlar, shu sababli, tilga muhabbatni ular uyg'otganlar.

Gulruxbonu yutuqlari haqida to'xtalmagani bois, ustozini bilan suhbatlashdik:

– Gulruxbonu yosh jihatdan sinfdoshlaridan eng kichigi bo'lishiga qaramay, bilimga chanqoqligi, tirishqoqligi, oldiga qo'ygan maqsad sari intilishi bilan ajralib turadi. Qobiliyatli, barcha fanlarni sevib o'qiydigan bu qizimiz she'r yozish, rasm chizish, til o'rganishga ham qiziqadi. Maktabimizda tashkil etilgan «Zakovat» guruhining eng faol a'zosi. Bu yil Toshkent shahar hokimligi tomonidan tashkil etilgan «Konstitutsiya – mening taqdirimda» insholar tanlovida, fan olimpiadasida 1-o'rinni egalladi. Gulruxning hali ochilmagan qirralari ko'p, shunday iqtidorli o'quvchilarning ustozini bo'lga-nimdan faxrlanaman.

Suhbatni yana Gulruxbonu bilan davom ettiramiz:

– Bu yil beshta OTMga hujjat topshirish imkoni berildi. Pandemiya sharoitida biz yoshlarga imkoniyat eshiklari ochildi, ikkita fandan imtihon topshirsak, bas. Qolaversa, ingliz tilidan milliy va xalqaro sertifikatlariga ega bo'lgan yoshlarga ingliz tilidan imtihon topshirmay, imtiyozli ravishda eng yuqori ball berish yo'lga qo'yildi. Men ham beshta yo'nalish bo'yicha hamda jahondagi xalqaro universitetlarga hujjat topshirdim va 33 ta universitetda o'qish huquqini qo'lga kiritdim. Quvonarlisi, bu OTMlar orasida



Amerika, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Kanada, Polsha va O'zbekistondagi Westminster, YODJU, INHA, Amity, Team va yana ko'plab universitetlar bor. Gulruxbonu qaysi universitetda o'qishni davom ettirishiga qiziqayotgandirsiz, albatta?!

– Men Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida o'qimoqchiman, – deydi Gulruxbonu.

– Onajonim ham bank sohasida ish-

laganlari uchun, qolaversa, xalqaro toifadagi iqtisodchi bo'lish orzum bor. Iqtisodiyot mamlakatni rivojlantiradi, unga hissa qo'shishga harakat qilmoqchiman. Biz O'zbekiston yoshlari baxtlimiz, jonajon yurtimizda imkoniyatlar ko'p, bundan foydalanib, jamiyat rivojiga hissa qo'shish esa bizning burchimiz. Ko'pincha shoir Iqbol Mirzo-

ning «Aytgil do'stim, nima qilding Vatani uchun?» she'rini takrorlab yuraman. Shu fursatdan foydalanib, menga tarbiya bergan onajonim, dadajonimga va buvijonimga o'z minnatdorligimni bildirmoqchiman. Mening oltin medalim meniki emas, ota-onamniki, chunki ular men uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib, mening darslarimga jiddiy e'tibor berishdi. Men shunday oilada dunyoga kelganimdan faxrlanaman. Albatta, menga ta'lim bergan barcha ustozlarimga ham o'z rahmatimni aytaman, ayniqsa, menga o'z farzandidek mehr bergan sinf rahbarimga alohida tashakkur izhor etaman. Ular menga o'z bilimlarini sidqidildan berib, katta yutuqlarga erishishimga sababchi bo'ldilar.

Ha, bizning ham bu yoshlardan umidimiz katta. Kelajak ular qo'lida. Maktabida ilk bor oltin medal sohibasi bo'lgan Gulruxbonu yanada yuksak marralarni egallashiga ishonamiz.

Mahmuda VALIYEVA



## DILMURODNING IL MURODI

**Hikoyamiz qahramoni Dilmurod Dilmurodov joriy yilda Marg'ilon shahridagi 14-umumta'lim maktabini oltin medal bilan tamomladi.**

Ochig'i, bu tengdoshimga juda havasim keldi. Boisi, u maktab davrining o'zidayoq salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritgan. Shu kungacha namunali xulqi va tashabbuskorligi uchun 150 ga yaqin faxriy va maqtoov yoriqlari, diplom hamda sertifikatlar bilan taqdirlangan. Dilmurodjon yosh bo'lishiga qaramay, qalami ancha charxlangan ijodkorlardan sanaladi. Maqolalari bir qator xorijiy nashrlarda ham e'lon qilingan. Jumladan, Ukrainada o'tkazilgan xalqaro konferensiya to'plamida uning o'zbek jurnalistikasi haqidagi maqolasi chop etilgan. Ingliz tili fani bo'yicha xalqaro olimpiadalarda g'olib bo'lgan. 6-sinf-dan buyon «Bilimlar bellashuvi»da, 9-sinf-dan esa fanlar olimpiadasida qatnashib, Marg'ilon shahri bo'yicha eng yuqori ballni to'plab, viloyatda ham maktabi va shahri sha'nini munosib himoya qilib kelgan.

Ilm cho'qqilarini egallash barobarida turli tadbirlardagi ishtiroki bilan ham ko'pchilikka namuna bo'lgan Dilmurod Xalqaro UNISEF tashkiloti tomonidan o'tkazilgan ko'plab seminar va aksiyalarda qatnashib, eng zukkolar safida e'tirof etilgan. Uning yana bir ibratli jihati, rus va ingliz tillarida bemalol muloqot qila oladi. Bugungi kunda ispan, turk, koreys va xitoy tillarini o'rganishga kirishgan.

Dilmurod bilan suhbatlashganimizda, joriy yil Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga hujjat topshirgani va universitet talabasi bo'lish eng katta orzusi ekanligini aytdi.

«Dilimda yana bir murodim bor: «Mard o'g'lon» Davlat mukofoti sohibi bo'lishni ko'zlayapman», deydi Dilmurod. – O'zbekiston xalq shoiri, senator Enaxon opa Siddiqova «Oltin medal»ni ko'ksimga taqayotganlarida, «Yashang, o'g'lim. Ko'ksingiz mukofotlarga to'lsin», dedilar. Shu so'zlarni eshitganimda, juda faxrlanib ketdim va xayolimga birinchi bo'lib «Mard o'g'lon» mukofoti keldi. Hozir yaxshi niyat qilyapman. Yaxshi niyat qilgan inson, albatta, ko'zlaganlariga erishganidek, men ham katta maqsadlarim ro'yobiga ishonaman!»

Dilmurodning shijoatini, o'ziga bo'lgan ishonchini ko'rib, safimizda shunday faol yoshlar borligidan faxrlanib ketdim.

Omad sizga, Dilmurod. Dildagi murodlaringiz, albatta, amalga oshadi.

Yorqinjon HAYITBOYEV

## Aziz ustozlar, o'quvchilar! Siz ham bizga yozib yuboring. «Bir kuni darsda...» nima bo'lgandi?

1995-yilning sentyabr oy-lari edi. Men FDU chet tillar fakultetining birinchi bosqich talabasiman.

Grammatika darsi edi. Ustozimiz, rahmatli Pozilov domla (shu ustozni doim familiyasini aytib chaqirganimiz uchun ismini sira eslolmadim) juda talabchan, qattiqqo'l edi. Hammamiz mashqni bajarib bo'ldik, endi navbat o'qishga keldi. Guruhimizda shu domlanning darsida to'g'ri yozganini ham hayajonlanib xato o'qiydigan Kamola ismli guruhdoshimiz bo'lardi. Unga navbat keldi. «I am hungry» so'zini «I'm hungri-hungri» deb yuborsa bo'ladimi?!



Domlamiz ko'zoynagining tagidan qarab, «Kamola fanga yangi so'z kiritdi», dedi-yu kulib yubordi. Biz ham o'zimizni kulgidan bazo'r tiyib turgan edik. Kamolaning o'zi ham rosa kuldi. Shunda ustoz menga yuzlanib: «Shahnoza, kaklik bo'p ket-e dedi-yu, «begin» dedi.

Bunday voqealar juda ko'p bo'lgan. «Talabalik oltin davr», deb bekorga aytilmas ekan.

**Shahnoza ERMATOVA,**  
Farg'ona viloyati, Farg'ona tumanidagi 37-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

# Bir kuni darsda...

\*\*\*

«Bir kuni ingliz tili darsiga sochlari uzun, ikkita qilib o'rilgan qoramag'iz ingliz tili ustozini kirib keldi (rahmatlik Buviniso opamning jonajon dugonasi edi). Juda hurmat qilardim, darsini jon quloqlarim bilan tinglab, vazifalarni bajarardim... toki o'sha kungi holatgacha... orqamdagi partada o'tirgan sinfdosh jo'ram darsda orqamga yashirib qitmirlik qila boshladi, men gavdali, jo'ram kaltagina edi. «Ustoz qarayapti», deb uni ogohlantirdim. Shu vaqt o'quvchilik hayotimdagi men uchun dahshatli holat sodir bo'ldi, yosh, qiziquvchan, intiluvchan qalbim qattiq sindi. Ustoz gapirib kelib shunaqangi qattiq burab chimchiladiki, butun vujudimda titroq bo'lib, ovozimda, «Nima uchun?» degan sado tashqariga chiqdi. «Aybingga yarasha haqqingni olding», dedi o'qituvchim zarda bilan.

Opamning o'limidan keyin bu opani juda hurmat qilardim, lekin u hech narsani aniqlamasdan turib meni qattiq jazoladi... Bilagimdagi ko'karish bir haftada ketdi, lekin qalbimdagi qora dog' hali-hamon turibdi! Shundan keyin u kishining darsiga kirmadim, hech kim so'ramadi ham... Ingliz tilidan tash-



**Mahbuba BEKMURODOVA,**  
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 6-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

qari barcha fanlarni a'lo baholarga tugatib, oliy ma'lumotli mutaxassis bo'ldim, qishlog'imizga rais bo'ldim, balki nohaq jazo olmaganimda, ingliz tilidan mutaxassis bo'larmidim?!»

Otam chuqur xo'rsindi.

– Qizim, seni ingliz tili o'qituvchisi bo'lishingga qarshi emasman, lekin bir nasihatim va talabim bor: hech qachon o'quvchini urma, nohaq bo'lsa ham jazolama, tushuntir, bola tushunadi, darsdan so'ng suhbatlashib aniqlik kirit!»

Mana, bugun otamning

to'rt farzandi ham oliy ma'lumotli pedagoglar, onam oliy ma'lumotli, ingliz tili o'qituvchisi... 10 yil bo'libdiki, otajonim va onajonimni nasihatlarini men bilan birga, birorta o'quvchini urmadim, so'kmadim, nafsoniyatiga tegmadim, balki shuning uchun ham bolalar meni yaxshi ko'rar?... Otajonim aytib bergan bir soatlik dars hayotimiz uchun saboq bo'layapti!

Taqdir charxpalagini qarangi, o'sha ustoz bilan yana birga bir maktabda ishlayapmiz, u kishi hali ham bolalarini chimchilarkan. O'quvchilardan eshitib, ustoz bilan alohida suhbatlashdim. Otamni nohaq jazolaganini yodiga soldim... Ustoz juda afsuslandi. Bir soatlik dars va butun kelajak...



## MEHRNING O'LCHOVI BORMI?

*Inson havosiz yashay olmaganiдек, mehr-muhabbatsiz ham yashay olmaydi.*

Mehr! Insonga xush yoquvchi musiqa kabi qanchalik yoqimli so'z. Yuragi urib turadigan jamiyki jonzot borki, bu tuyg'uga muhtoj.

Dadajonim dunyodagi eng yaxshi ota, shuningdek, eng mehribon farzandlar. Bilasizmi, nega? Bir vaqtning o'zida ham biz – o'g'il-qizlariga, ham onajonlariga mehr beradilar. Biz dadamning ishlari tufayli shaharda, buvim esa kichik amakim bilan birga Baxt shaharchasida yashaydilar. Dadajonim har kuni oradagi 28 kilometrlik masofani bosib o'tib, buvijonimni yo'qlab borishni kanda qilmaydilar. Yolg'izim, mo'tabar va yagona sirdoshim, deya onalarining duolarini oladilar. Biz buvijonimnikiga borganimizda, keng hovlilari yanada kengayib ketgandek bo'ladi. Mayin shabada, qushlarning chug'ur-chug'uri odamga xush yoqadi.

Men bir narsani tushunmayman: nimagadir qishloq odamlari ko'pincha shaharga talpinishadi. U yerda yashash oson, deb o'ylashadi. Menga esa qishloq hayoti juda yoqadi. Musaffo havosi, keng dalalari, tongni eng birinchi qarshilaydigan xo'rozlari-yu sut-qatqlarini juda-juda yoqtiraman. Aynan buvijonimning uylari xuddi shunday. Ayniqsa, u yerdan quyoshning chiqishi va botishini bemalol kuzatishni yoqtiraman.

Pandemiya sababli anchadan buyon buvimlarnikiga borolmay qoldik. Lekin dadam har kuni telefon orqali bog'lanib, buvijonimdan hol-ahvol so'rashni kanda qilmaydilar. Bir kuni dadajonimga savol berdim:

– Har kuni emas, kunora yoki haftada bir borsangiz, qo'ng'iroq qilsangiz ham bo'ladi-ku. Masofa uzoq bo'lsa...

– Yodingda tut, mehr masofa bilmaydi! Onam mendan 28 chaqirim emas, balki 1000 km uzoqlikda yashaganlarida ham xuddi shunday qilardim, har kuni borib ko'radim. To'g'ri, onam men olib boradigan 4 ta nonga muhtoj emaslar, gap mehrda, e'tiborda. Ona har kimning, hamma narsaning o'rnini bosishi mumkin, ammo onaning o'rnini hech narsa va hech kim bosolmaydi!

Dadamning hikmatlarga boy so'zlaridan o'zimga xulosa chiqardim. Demak, mehr bu qimmatbaho sovg'a yoki qandaydir buyum bilan o'lchanmas ekan.

**Nigora ORIFJONOVA,**  
Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 5-umumta'lim maktabi o'quvchisi


Jahon adabiyotining yorqin namoyandasi Chingiz Aytmatovning «Oq kema» asarini ta'til davrida o'qib chiqdim. Asar menga juda yoqdi.

## «OQ KEMA» SUZISHDA DAVOM ETADI



Qorovultog' etaklaridagi uchtagina oila yashaydigan o'rmon qorovulxonasida tengdoshlarisiz yashaydigan bolakay – Mo'mincholning nabirasi. U na Issiqko'lda matros bo'lgan dadasini, na oilasi

shoxdor ona bug'u avlodlarining buzilishiga sabab bo'ladi. Bola johil kimsaning qo'lida shoxdor bug'uning boshini ko'rib qalbi vayron bo'ladi. Adolat, ezgulikning yo'qligidan ranjib, baliqqa aylanib



**Suratda: Madina Rahimjonova dugonasi Muxtasarxon Abdurahimova bilan.**

bilan ajrashgach, shaharga ketib qolgan onasini eslay oladi. Uning do'sti ham, raqiblari ham tog' u tosh, qir-adirlar, dov-daraxtlar. U yo'l bo'yidagi har bir xarsang-toshga tuya, tank, bo'ri rasmlarini chizib, ularni yaxshi-yomon xislatlarini birma-bir sanaydi. O'simliklar orasida ham hurkak, yovuzlari bor. Chag'irtikanak eng birinchi dushmani. Shiroljin esa sadoqatli do'sti. Biror ko'ngilsizlik yuz bersa, yig'lab, undan panohtopadi. Ko'chma do'kondan bobosi olib bergan portfelini har kech quchoqlab yotadi. Atrofdagilarga ko'z-ko'z qiladi. Besh kilometr olisdagi Jillasoydagi maktabga borayotganini tasavvur qiladi. Uning ikki qardron buyumi bor: biri durbini, ikkinchisi portfeli. Eng yaqin do'sti – bobosi. Oq kemani kuzatishi uchun durbini sovg'a qilgan. Bolaning ikki ertagi bor, ulardan birini o'zidan boshqa hech kim bilmaydi. Shoxdor ona bug'u haqidagisida jonivor yetim bola va qizchaga mehribonlik qiladi. Lekin marhumlar qabriga shox o'rnatish

qolgisi, Issiqko'l tomon suzib ketgisi keladi. Shuningdek, asarda Bekey, O'rozqul, Saidahmad, Guljamol kabi obrazlar ishonchli tasvirlangan. Shoxdor ona bug'u xalq, ezgulik, olijanoblik, oq kema to'kinlik, mehr-oqibat, diydor, baliq esa erk va qudrat ramzidir. Bolaning bolalik davri beg'uborlikka emas, dard-u hasratga to'la. Shunday bo'lsa-da, u oq kema xayoli bilan yashaydi, orzu qilishdan to'xtamaydi. Bolakay obrazi orqali yozuvchi har kim o'z oldiga qo'ygan maqsadi sari tinmay izlanishi kerakligini bayon qiladi. Doimo har qanday to'siqqa tayyor turish lozim. Menimcha, bugungi karantin davrida ham har kim o'zini yakkalatishi, bo'sh vaqtini ko'cha-ko'ya do'stlari bilan emas, kitob o'qish bilan o'tkazishi afzal. Zero, kitob yaxshi do'st, beminnat muallim, bitmas-tuganmas bilim va boylik manbaidir.

**Madina RAHIMJONOVA,**  
Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 19-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## SARDOBADAN



## KELGAN SOVG'A

**Bu yil xalqimiz boshiga ko'p sinovli kunlar keldi. Koronavirusning tobora avj olishi, Buxorodagi kuchli shamol, Sardobadagi suv toshqini... Bunday og'ir kunlarda harbiylar va shifokorlar xalqimizga madad bo'ldi, ularning og'irini yengil qildi. Mening dadajonim Anvar aka Hamidov ham ichki ishlar xodimi bo'lganliklari uchun Sardobadagi toshqindan so'ng aziyat chekkanlarga yordam berishga oshiqdilar. Ular ko'pchilik oilalarga ko'maklashdilar, dadam garchi uzoqda bo'lsalar-da, issiq taftlari bizga yaqqol sezilib turdi.**



Men bolaligidan ashula aytish va raqs tushishga juda qiziqaman. Maktabimiz direktori Ma'rifat Rajabova hamda ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Nodira Istamova mening iqtidorimni ko'rib, shahrimizdagi O'zbeknavo raqs jamoasiga olib bordilar va Buxoroning eng zo'r raqs murabbiyi Salomat opa Rahmonovanning qo'llariga topshirdilar. Biz Salomat opa bilan juda ko'p mashq qildik. Mashqlarim o'z samarasini berib, «Kamalak» yulduzlari», «Mavrigi Buxoro» ko'rik-tanlovlarida g'olib bo'ldim. Buxoro O'zbeknavo bo'lim rahbari Rauf aka rahbarligida bu yil juda ko'p onlayn festivallarda qatnashdim. Hatto Sardobada o'z xizmat burchini o'tayotgan dadajonimga buvim Nazira aya va onam Xonzodaxon bilan birga «Mavrigi Buxoro» raqsini onlayn sovg'a sifatida jo'natdik. Bundan dadam juda xursand bo'ldilar. Tug'ilgan kunimni nishonlayotganimizda esa ustozlarim Rauf aka va Salomat opa bir dasta gul hamda yumshoq o'yinchoq bilan kirib kelishdi. Sardobadan kelgan sovg'alar dadajonimdan ekanligini aytishganida, boshim osmonga yetdi.

**Shabnam HALILOVA,**  
Buxoro shahar, 22-umumta'lim maktabi o'quvchisi

# «Boylikni bolalikdan asrang» tanloviga

## SUVSIZLIKDAN GULLARIM QOVJIRAMASIN



*Tabiatning betakror go'zal-liklaridan bahramand bo'lish, zavqlanish maqsadida hovlimizda turfa gullar parvarishlayman. Ularning gurkirab o'sishi va chamandek ochilishi uchun hosildor tuproq, quyosh va suv qay darajada zarurligini yaxshi bilaman. Ba'zan gullarim qovjirab qolganini ko'rib, vaqtida suv qymaganim uchun o'zimdan xafa bo'lib ketardim.*

Karantin davrida mo'jazgina kutubxonamdagi yapon olimi Emoto Masaru qalamiga mansub «Suvning muhofazasi» asarini o'qib chiqdim. Asardagi suvning hayot manbai ekanligi haqidagi rivoyat menga juda ta'sir qildi. Bir olim oddiy suv bilan davolashning bir necha usullarini kashf etadi. U Amerika Qo'shma Shtatlarida olib borgan ilmiy tadqiqotlari natijasida oddiygina suv ham yaxshi niyat

bilan ichilsa, shifobaxsh doriga aylanishi mumkinligini isbot qiladi. Ko'pincha bosh og'rig'ida ham dori o'miga oddiygina suvni dori vositasi sifatida qo'llash usullarini yaratadi.

Suv bu tiriklik, mo'l-ko'lchilik manbai bo'lib, u haqida yomon gap aytilsa, yomon holatga tushar ekan. Yaponiya markazida joylashgan Fudzivora suv omboridagi suvning shu darajada loyqalanib, ifloslanib, rangi qorayganligini kuzatgan Emoto Masaru «Singan badda» maktabining diniy fan o'qituvchi Xuko Kato sura va oyatlar o'qilgani sari suvning tiniqlashib borayotganiga, Biyva ko'lining suvini esa shu atrofda yashovchi 50 nafar fuqaro birgalikda tilovatlar qilib, tozalashganiga guvoh bo'ladi. Shu tariqa suvning qudrati odamzodga bog'liqligini yana bir bor isbotlaydi. Insonning jismiga, ruhiyatiga yaxshi ta'sir qiluvchi uchta qimmatbaho shifobaxsh ozuqa bo'lib, ular suv, mehr va shirin so'zdir. Kundalik hayotimizda bu uchala ozuqaning o'zagi bo'lmish suv orqali tanamizni, ruhiyatimizni sog'lomlashtiramiz, ilm o'rganib, aqlimizni charxlaymiz.

Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda bir qishloqdagi orolchada suv qurib qoladi. U yerning aholisi birlashib, erta-yu kech Yaratganga iltijo qilishibdi. Yaxshi niyatlari ijobat bo'lib, orolga suv qaytibdi. Xalqimiz tilidagi «Ko'pning duosi ko'l» iborasi shundan kelib chiqqandir, balki?! Yana shifobaxsh buloqlar ham bo'ladiki, shifo istab kelgan ko'plab bemorlar niyat qilib buloq suvidan ichib, shifo topishadi. Inson chin dildan yaxshi niyat qilib, suvni tavof aylasa, tilaklari ijobat bo'lgan.

Xulosa o'rinda, tiriklik manbai bo'lgan bu bebaho ne'matdan oqilona foydalanaylik, behuda isrof qilmaylik. Hovlimizda parvarishlayotgan gullarimiz sira suvga muhtoj bo'lmasin. Ko'ring, turfa gullarimga siz ham havas qiling.

Mumtozabonu FAXRIDDINOVA,  
poytaxtimizning Abdulla Qodiriy nomidagi ijobat maktabi o'quvchisi

## BEBAHO NE'MAT



*Darhaqiqat, suv tabiatning bizga berilgan in'omidir. Suvsiz yer yuzida hayot bo'lmaydi. Suv bor ekan, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami va biz insonlar tirikmiz.*

Bizning Toshkent tumanimizda kunduzi jo'mrakdan suv kam tushadi. Shu sababdan buvum uyimizdan quduq kovlatganlar. Biz shu quduqdan suv chiqarib, ekinlarni sug'oramiz. Shu tariqa toza ichimlik suvini tejaymiz. Qadim zamonlardan oq, insonlar suvni muqaddas bilib e'zozlashgan, suv manbalari bor joylarga – buloq, soy, daryo, ko'l bo'ylarida va ularga yaqin joylarda insonlar o'zlariga yashash joylari barpo etishgan. Vatanimiz hududida bundan 3 ming yil avval

yaratilgan zardo'shtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da ham suvning muqaddas ne'matligi, borliqning tirikligi u bilan ekanligi ta'kidlanadi. Qadimda kimki suvga tupursa, chiqindi tashlasa, suvni bulg'asa, u xoh hokimto'ra bo'lsin, xoh oddiy dehqon, uni qattiq jazolashgan va uzoqlarga badarg'a qilishgan.

Yana bir bebaho ne'matimiz elektr-energiyasidir. Hozirda hayotimizni elektr-energiyasiz tasavvur qila olmaymiz. Ma'lumki, bu ne'mat ham bitmas-tuganmas emas. Shuning uchun ham biz elektrni tejashimiz kerak. Men doim behuda yonib turgan chiroqlarni o'chirib yuraman, muzlatkichni ham vaqti-vaqti bilan o'chirib turaman. Bir tasavvur qilib ko'raylik, bir kun emas, besh daqiqagina elektr bo'lmasa, qanday vaziyat

yuzaga keladi: katta-katta zavod, fabrikalarda ish to'xtab qoladi, ishlab chiqarishga zarar yetadi. Shunday ekan, elektrdan oqilona foydalanishimiz, elektr-energiyasini tejashda biz ham o'z hissamizni qo'shishimiz zarur.

Ma'lumotlarga ko'ra, tabiatning yana bir in'omi bo'lgan tabiiy gazdan arzon yoqilg'i sifatida foydalaniladi. Tabiiy gaz kundalik turmushimizda va sanoat ehtiyojlari uchun ishlatiladigan yoqilg'ilarning eng yaxshi turlaridan biridir. Bundan tashqari, tabiiy gaz kimyo sanoati uchun qimmatli xomashyo hisoblanadi. Shuning uchun gazni ham tejab ishlatsak, jamiyatimiz uchun katta foyda keltirgan bo'lamiz. Demak, tabiiy boyliklarni asrash biz uchun muqaddas burchdir.

Fayzulloh RAVSHANXONOV,  
Toshkent tumanidagi 9-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

## CONDITIONALS

IF...



Do you know how to use the zero, first and second conditionals?


Look at these examples to see how zero, first and second conditionals are used.

If you freeze water, it becomes solid.

If it rains tomorrow, I'll take the car.

If I lived closer to the cinema, I would go more often.

Conditionals describe the result of a certain condition. The if clause tells you the condition (If you study hard) and the main clause tells you the result (you will pass your exams). The order of the clauses does not change the meaning.



If you study hard, you will pass your exams.

You will pass your exams if you study hard.

Conditional sentences are often divided into different types.

### ZERO CONDITIONAL

We use the zero conditional to talk about things that are generally true, especially for laws and rules.


If I drink too much coffee, I can't sleep at night.

Ice melts if you heat it.

When the sun goes down, it gets dark.

The structure is:

**if/when + present simple >> present simple.**



### FIRST CONDITIONAL

We use the first conditional when we talk about future situations we believe are real or possible.

If it doesn't rain tomorrow, we'll go to the beach.

Arsenal will be top of the league if they win.

When I finish work, I'll call you.

In first conditional sentences, the structure is usually:

**if/when + present simple  
>> will + infinitive.**


It is also common to use this structure with unless, as long as, as soon as or in case, instead of, if.

I'll leave as soon as the babysitter arrives.

I don't want to stay in this city unless I get a well-paid job.

I'll give you a key in case I'm not at home.

You can go to the party, as long as you're back by midnight.



### SECOND CONDITIONAL

The second conditional is used to imagine present or future situations that are impossible or unlikely in reality.



If we had a garden, we could have a cat.

If I won a lot of money, I'd buy a big house in the country.

I wouldn't worry if I were you.

The structure is usually:

**if + past simple >> + would + infinitive.**

When if is followed by the verb be, it is grammatically correct to say if I were, if he were, if she were and if it were. However, it is also common to hear these structures with was, especially in the he/she form.

If I were you, I wouldn't mention it.

If she was prime minister, she would invest more money in schools.

He would travel more if he was younger.

## THE THIRD CONDITIONAL

We make the third conditional by using the past perfect after 'if' and then 'would have' and the past participle in the second part of the sentence:

**if + past perfect, ...would + have + past participle**

It talks about the past. It's used to describe a situation that didn't happen, and to imagine the result of this situation.



If she had studied, she would have passed the exam (but, really we know she didn't study and so she didn't pass)

If I hadn't eaten so much, I wouldn't have felt sick (but I did eat a lot, and so I did feel sick).

**If we had taken a taxi, we wouldn't have missed the plane**

**She wouldn't have been tired if she had gone to bed earlier**

**She would have become a teacher if she had gone to university**

He would have been on time for the interview if he had left the house at nine.

## MIXED CONDITIONALS

**Mixed conditionals are conditionals where the tense in the main clause is different from the tense in the conditional-clause (also called if-clause).**

*If I were you, I would have bought the red dress.*

(I am not you, so I did not buy the red dress in the past.)

*If the teacher were here, she would have turned on the heater this morning.*

(The teacher is not here right now, so the heater was not turned on this morning.)

*If the students had more time, they would have finished their work yesterday.*

(The students do not have more time, so they did not finish their work yesterday.)

Examples of conditionals:

If I won the prize, I would take you shopping.

## Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

### Future + Future

I would be happy if he asked me to the dance.

### Future + Future

He would have known what to get only if he had asked his father.

### Past + Past

If I had put air in the tires, I wouldn't have had a flat tire last night.

Which type of the Conditional sentences is used?

**She would be very happy if her friends came.**

- type I (condition possible to fulfil)
- type II (condition in theory possible to fulfil)
- type III (condition not possible to fulfil - too late)

**If I find your key, I'll tell you.**

- type I (condition possible to fulfil)
- type II (condition in theory possible to fulfil)
- type III (condition not possible to fulfil - too late)

**He would have been home on time if the bus had come.**

- type I (condition possible to fulfil)
- type II (condition in theory possible to fulfil)
- type III (condition not possible to fulfil - too late)

Put in the correct verb forms.

- If you were older, you \_\_\_\_\_ (to go) to the party.
- If she \_\_\_\_\_ (to have) more money, she would go to Europe.
- If you listened carefully, you \_\_\_\_\_ (to know) about it.

Which answers are correct?

- Which words/phrases can be used in an if-clause type II?

- had sung    has played    play
- played    sang    sing

- Which words/phrases can be used in an if-clause type I?

- had played    play    played
- plays    sang    sing    will sing

- Which words/phrases can be used in an if-clause type III?

- had played    had sung    has played
- have played    have sung    sang

## DAVOMI. BOSHI AVVALGI SONDA

Jonivorlar shahri politsiyasi hali ham izsiz yo'qolgan jonivorlarni topa olmagandi.

– Vidrengton xonim, iltimos, sabr qiling. Navbatingiz kelgunicha kutib turishingiz kerak!

Kapitan Buyvolson esa Judy o'ylaganchalik xursand emas edi.

– Xizmat joyingni tashlab ketding. Fuqarolar hayotini xavfga qo'yding. Bularning bari qandaydir ikki kilogramm piyoz uchunligi esa...

## JONIVORLAR SHAHRI

– Siz bilan bahslishni istamayman. Ammo bular piyoz emas. Bular rapul lutanikum guili ilidzari.

– Botanikadan biroz xabarim bor. Chunki bu ilidzilar quyonlar uchun...

– Hoziroq bas qil!!!

– Men jinoyatchini qo'lga tushirdim. Bu mening vazifam-ku!

– Sening vazifang avtomobil oynalariga jarima qog'ozlarini yopishtirish!!!

– Kapitan, men avtomobillarni jarimaga tortishni istamayman. Jiddiyroq ish bilan shug'ullanishni istayman.

– Shahar meri seni ishga olishga majburlaganda, mening fikrim bilan hisoblashgan deb o'ylaysanmi?

– Lekin men...

– Manzur tuting, kapitan. Mana, 10 kunki erimdan darak yo'q.

O'sha payt to'stadan...

– Kechiring, kapitan. U juda chaqon chiqib qoldi...

17

Kapitan Buyvolson eshikni ochganida, uning qarshisida mer o'rinbosari Barashkis xonim turar edi.

– Yangi ishchening shaxsni o'zi bu ish bilan shug'ullanishini eshitdim

– Teng imkoniyatlar dasturi o'z samarasini bera boshladi. Meming boshi osmonga yetadigan bo'ldi.

– Buni merga yetkazishning hojati yo'q.

– Xabar yozildi, jo'natildi.

– Biz kabi jonivorlar birdam bo'lishimiz zarur. Shunday ekan, sizga qandaydir yordam zarur bo'lsa, menga murojaat qilishingiz mumkin.

Garchi kapitan Buyvolsonga bu ma'qul tushmagan bo'lsa-da, uning boshqa chorasi qolmagan edi.

– Senga ikki kun beraman. Oritqcha bir daqiqaga ham umid qilma. Topolmasang, haydalan.

– Roziman...

«Yaxshi, kerakli ma'lumotlarni Kogtyauzerdan olasana».

– Bunaqangi murakkab ishni hali ko'rmagandim.

– Hech qanday dalillar ham, guvohlar ham yo'q. Senda esa ma'lumotlar bazasiga kirishga ruxsatnoma berilmagan. Shunday ekan, imkoniyatlarining nolga teng.

Judy Vidrengtonning so'nggi suratlarini ko'zdan kechirar ekan, tanish muzqaymoqqa ko'zi tushdi.

19

– Xonim, sizni ishontirib aytamanki, biz qo'limizdan kelgan barcha ishni qilyapmiz.

– Uning ismi Emmet Vidrengton. U gul sotuvchisi.

– Ha-ha. Xabarim bor.

– Iltimos... U sababsiz yo'qolib qolishi mumkin emas. Unga biror kor-hol bo'lmaganmikan, deb xavotirdaman.

– Bizning odamlar bor imkoniyatlarini ishga solganlar.

– Nahotki, Emmetni hech kim topolmasa?

– Uni men topaman.

– O-o-o. Qanday yaxshi!!! Sizdan juda ham minnatdorman. Bu ishni uddalashingizga ishonaman.

– Vidrengton xonim, iltimos, bizni tashqarida kutib tursangiz.

– Sen bo'shatiding!  
– Nima??? Nima uchun?

– O'zboshimchaliging uchun. Men hozir eshikni ochaman. Sen esa Vidrengton xonimga bu ish bilan shug'ullana olmasingini aytasan!

18

Buyruq berish navbati endi uniki...

– Mana men!!! Xayrli kun. Agar qarshi bolmasang, senga bir nechta savollarim bor.

– Jim, shal-panguloq. Men ishlayman kerak.

– Men ham bekorchi emasman. 5 dollarlik firibralaringni bo'lishimga to'g'ri keladi.

– Qanaqangi 5 dollar?! Men kuniga 200 dollar topaman. Yilda 365 kun, 12 yil...

– Iltimos, shu suratga bir marta qara. Uni taniysanmi?

– Men butun shaharni taniyman. Yana shuni ham bilamanki, kimdir o'yinchoq qutisidan yumshoq o'yinchoq'ini qidirayotli. Qizaloq, bu yerdan ketganiga ma'qul.

– Demak, yaxshilikcha kelisholmaymiz. Nikolas Uayld, siz hibsga olindigiz.

– Nima uchun?

– Soliqlardan bo'yin tovlaganingiz uchun.

– Shunday qilib, kuniga 200 dollarda... 365 kun... 12 yil... Jami bo'lib 1.460.000 dollar, shundaymi?

– Tekshirib ko'ramiz... shuncha yillik to'lagan soliqlaringiz... nolga teng... Bunday katta miqdordagi soliqlarni to'lamaslik besh yillik qamoq jazosi bilan jazolanadi.

20



- Buni sudda isbotlay olmasan

- Qanaqangi 5 dollar?! Men kuniga 200 dollar topaman. Yilda 365 kun, 12 yil...

- Xo'sh? Sud gaysi birimizga ishonar ekan?

- Menga Vidringtonni topishga yordam bersang, ruchkani senga beraman.

- Xa-xa-xa... Seni chuv tushirishdi.

- Endi sen ham xomkalla, kallavaram iskovuchsan!!!

- Uning qayerga yo'qanini bilmayman. Faqat qayerdan yo'qolganini bilaman

- Endi bilganlarini aytib ber.

- Kim? U qunduzni eslay olmayman.

- Ko'rib turganingizdek, Nanga ajoyib murabbiy. Fillarning xotirasi juda ham ajoyib. Nanga, ular sendan Verdington haqida ba'zi narsalarni so'rashmoqchi.

Birozdan so'ng, «Oazis - xayollar chashmasi»da.

21

- Esingdami. Nanga? U ikki hafta avval, chorshanbada kelgan edi. Emmet o'shanda to'q yashil nimchada katta kumushrang mashinaga o'tirib ketgandi.

- Yo'q.

- Balki avtomobil raqami ham yodingizdadir?

- O-o! Yodimda, yodimda. Shunday qilib, mashina raqami 29 BIGOZ

- Hammasi Nanganing sharofati bilan. Uning xotirasi juda kuchli. Xuddi po'lat qopqonga o'xshaydi. Unga o'xshashim uchun fil bo'lib tug'ulishim kerak

- Istagingini bajardim. Endi butun umr ustindan hukm yurg'uzmoqchimisani?

- Mana, ishing bildi. Endi ruxsating bilan o'z ishingga qaytsam. Ruchkani esa o'zim bilan olib ketaman.

- Nega endi butun umr? Menda yana bir kundan sal ko'proq vaqt bor. Mashina kimniqligini aniqlay olasani?

- Yo'l boshqarmasida bir tanishim bor. Blits u yerdagi eng uchar yigit.

- Yaxshi, har daqiqqa g'animat.

- Avtomobil kimga tegishligini aniqlay olmayman. Ma'lumotlar bazasiga kirolmayman.

- Biroq...

- Nima??? Ularning bari yalqovlami? Axir tez bo'ladi deb va'da bergan eding-ku!

22

- Nima? Yalqovlami sekin ishlaydi, demoqchimisani? Nima sen stereotiplarga ishonmaysani?

- Salom. Men Judy Hops, politsiyadanman.

- Salom Judy...

- ...juda ham...

- ...xursandman.

- Sizga...

- ...qanday...

- ...yordam...

- ...bera...

- ...olaman.

- Marhamat.

- Sabrim tugadi!!!

23

- O'zing hayotda hech narsaga erisholmaganсан. Endi mening ham yo'limga to'siq bo'lmoqchimisani?

- Baribir u yerga kirish uchun senda order yo'q.

- Sen ataylab vaqtini cho'zding

- O'zing hayotda hech narsaga eishmagansan. Endi yo'limga to'g'anoq bo'lmoqchimisani?!

- Modomiki, senda kirish uchun order yo'q ekan, men ozodman, shundaymi?

- Ruchkani olishing mumkin.

- Hoy!

- Birinchidan, bu qilgan ishing bilan hech narsaga erisha ol-maysan. Ikkinchidan, mag'lubiyatni ham tan olishni o'rgan.

- Mayli, ozodsan.

- Ko'rishguncha, quyoncham. Yordamim tegmaganidan afsusdaman.

- Turargohga shubhali, malla kimningdir kirganligini ko'rib, ortidan kuzaldim. Bunday holatlarda orderning hech ham keragi yo'q. Sen menga juda ham asqotqapsan.

«Ortimdan»

- 29 BIGOZ, qidirayotganimiz shu.

24

## 5-«A» «YOSH DASTURCHI» TO'GARAGINI TANLADI

Yozgi ta'tilda asosiy vaqtini to'garaklarda o'tkazadigan, hunar o'rganadigan o'quvchilar karantinga ham qaramasdan biz ustozlardan saboq olishdan to'xtaganlari yo'q.

Aksincha, tashkil etilgan onlayn to'garaklar orqali bolajonlar o'z qiziqishlari bo'yicha turli mashg'ulotlar bilan shug'ullanishdan tashqari kompyuterdan unumli foydalanishga ham o'rgandilar. Maktabimizda «Besh tashabbus» doirasida o'quvchilarimizning ta'til vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularga turli kasb-hunar sirlarini o'rgatish, amaliy san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida «Yosh dasturchilar», «Mohir qo'llar», «Tasviriy san'at» kabi onlayn-to'garaklar faoliyat olib bormoqda. Ushbu to'garaklarda faol ishtirok etayotgan 5-«A» sinf o'quvchilaridan Nodira Yo'ldosheva, Iroda Qudratova, Mira'zam Asomiddinova «Yosh dasturchi» to'garagini tanlashgan. Bu mashg'ulotlarni tashkil etishda ko'maklashayotgan maktabimiz rahbari Malika G'ulomjonova va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Gulnoza Mamajonovadan o'quvchilar-u ota-onalar mamnun.

Dilorom JALILOVA,  
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi  
195-umumta'lim maktabi  
o'qituvchisi.



Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasining jonkuyar xodimlari! Karantin sababli qadrdon bilim dargohimizga bora olmayapmiz. Maktabimizni, ustozlarimizni juda-juda sog'indik.

## IJOD QILISHIMDA KO'MAKCHI

Karantindan unumli foydalanish maqsadida «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'ldik. Ayni paytda shahar-u qishloqlarimizda yashovchi tengdoshlarim bilan tanishish baxtiga musharraf bo'lyapman. Gazetadagi maqolalarni o'qib, tengdoshlarim ijodidan ilhomlanib, men ham qo'limga qalam oldim. Bunga sabab bor, albatta. Yaqinda bo'lib o'tgan matematika onlayn fan olimpiadasida 1-o'rinni egalladim. Ona tili fanidan esa 2-o'rin sohibasi bo'ldim. Buning uchun jonkuyar ustozim Muhayyo Nusurovaga cheksiz minnatdorlik bildiraman. Kelajakda mehribon va shirinso'z ustozimning mehnatlarini, bizga saboq berish yo'lida chekkan zahmatlarini, albatta, oqlayman. Fursatdan foydalanib, «Tong yulduzi» gazetasi xodimlariga ham samimiy minnatdorligimni izhor etaman. Chunki u men kabi ijodga ixlosmand o'g'il-qizlarga ilhom bag'ishlaydi.



Muhayyo Nusurova

# TISH FARISHTASI

Asaloy HAMROYEVA,  
Qarshi shahridagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Mening birinchi tishim 7 yoshimda tushdi. «Tish farishtalari» haqida ko'p ertaklar eshitgandim. Ularning hayotda mavjudmi yoki yo'qmi, shuni bilish maqsadida «Tish farishtasi»ga quyidagi mazmunda maktub yozdim:

«Assalomu alaykum, Tish farishtasi! Mening orzularim juda ko'p. Ularni amalga oshirish uchun esa istagan narsamni muhayyo qiluvchi sehri tayoqcham bo'lishini istardim. Iltimos, menga sehri tayoqcha bering! Hurmat bilan Mashhurbekdan Tish farishtalari qirolligiga!»

Agar menga maktub yozmoqchi bo'lsangiz, manzilimni aniq yozdim-da, maktubni, tushgan tishimni yostig'im tagiga qo'yib, uyquga yotdim.

Ertalab turib qararasam, yostig'im tagida 2 ta 5000 so'mlik pul va qandaydir xatjild turibdi. Dadam va oyim nonushta qilishayotgan ekan. Men ularning yoniga borib: «Dada, oyijon, bu maktub qayerdan keldi?» deb so'ra-

dim. Dadam qo'limdagi xatjildni olib, yelimidan ko'chirib, astagina ochib berdi. Men xatni o'qiy boshladim, unda quyidagi so'zlar yozilgan edi:

«Salom Mashhurbek! Biz Tish farishtalari butun dunyoni aylanib, tishi tushgan aqlli, tartibli va a'lochi bolalarning tishlarini yig'ib yuramiz. Shunday bolalar qatorida sen ham borsan. Bizga yozgan maktubingni


oldik va Tish farishtalari qirolligiga borib, barcha farishtalarga yetkazdik. Ular sendan juda ham xursand bo'lishdi. Maktubing uchun katta rahmat!

Maktubingda sehri tayoqcha sovg'a qilishimizni so'rabsan. Agar bilsang, sehri tayoqcha juda ham katta kuch-qudratga ega. Bundan bir necha 100 yillar avval ham bir bolakay senga o'xshab sehri tayoqcha so'ragan edi. Qirolichimiz unga sehri tayoqchani sovg'a qildi. Oradan ko'p o'tmay, bolakay sehri tayoqchani kuchidan yovuz maqsadlarda foydalana boshladi. U o'zini dunyoga hukmdor qilmoqchi, hammani o'ziga bo'ysundirib olmoqchi bo'ldi. Shunda biz uning qo'lidan sehri tayoqchani ming mashaqqatlar bilan tortib oldik va

o'z qirolligimizga olib ketdik. Shundan buyon sehri tayoqchani insonlarga bermaslikka qaror qildik.

Shuning uchun bizdan xafa bo'lmagin, bolakay. Agar sen aqlli bo'lsang, ko'p kitoblarni o'qisang, ota-onangni aytganlarini qilsang, jismoniy tarbiya bilan doimo shug'ullanib yursang, kelajakda hamma orzularingga erishasan. Shunda sehri tayoqchani ham kuchliroq qudratga ega bo'lasan. Biz senga ishonamiz!

Biz tishlari oppoq va chiroyli bolakaylarni yaxshi ko'ramiz. Bizga maktub yozib turgin. Manzilimiz: Sehri ertaklar mamlakati, Tish farishtalari qirolligi, Marvarid tishlar shahri,



Oppoq tishlar ko'chasida yashovchi Mitti Tish farishtalari»...

Men hozir 9 yoshdaman. Lekin hamon Tish farishtalari mavjudligiga ishonaman va ularning maslahatiga amal qilib, tishlarimni asrashga harakat qilaman.

Mashhurbek  
ZAMIRJONOV,  
Buxoro shahridagi  
35-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi



**FAQAT QIZLAR O'QISIN!**

**YAXSHI MUOMALA – baxt-u saodatning kaliti**

*Odamlar o'rtasidagi munosabatni belgilaydigan muomala inson yuragini ko'zguda aks etgandek namoyon etadi. Kishining so'zidan, muomalasidan uning qanday odam ekanligini bilib olish qiyin emas. Inson kamolotida, hayot rivojida, ish yuritishda, odamlar sihat-salamatligini muhofaza qilishda muomala asosiy omildir. «Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin», deydi xalqimiz.*

Rivoyat qiladilar: «Qadimda bir podsho o'z xizmatkorlariga «Menga qo'y go'shtining eng shirin joyidan pishirib keltiring», deb buyruq beribdi. O'y lab o'ylariga yetolmagan xizmatkorlar vazirga murojaat etibdilar. Vazir ham jumboqni yetolmay boshi qotibdi va o'zining aqlli, dono, ko'p kitob o'qib ulg'aygan qizidan so'rabdi. Qiz: «Qo'yni so'yib, uning tilini podshohimizga pishirib keltiring», debdi. Xuddi shunday qilishibdi. Ertasiga podsho: «Qo'y go'shtining eng achchiq joyidan pishirib keltiring», debdi. Xizmatkorlar yana hayron qolishibdi. Vazirning qizi esa, «Yana

bir qo'yni so'yib, tilini pishirib beringiz», debdi. Shunday qilishibdi. Podsho bunday aqlning kimdan chiqqanini surishtirib bilgach, qizga, uning aql-u farosatiga ofarinlar aytib, katta to'y-tomoshalar bilan uni o'g'liga olib beribdi»...  
Ha, shirini ham til, achchig'i ham til. Xalqimizda, «Sevdirdigan ham til, bezdirgan ham til», degan ajoyib naql bor. Shirin til, mulo-haza, mushohada bilan samimiy muomalada bo'lishga odatlanish har bir insonning, ayniqsa, hayotimiz fayzi bo'lgan xotin-qizlarning, onalarning eng asosiy fazilati, burchidir.

lar, muomala madaniyatini, muomala san'atini bilmasalar, hech qachon o'z galar hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lolmaydilar. Yigitlar muhabbatini qozonish uchun ham, avvalo, qizlarda muomala madaniyati yuksak bo'lishi lozim.

Yoshlikdan noo'rin, qo'pol, ibosiz so'zlarni tilga olmaslikka odatlangan ma'qul. Chiroyli, ma'noli, kishi ruhini ko'taradigan so'zlar bilan fikrni izhor qilishga, deyarli hammaga sizlab gapirishga o'rgansangiz hayotda, mehnatda o'z o'ringizni topib ketasiz. Muomala shirin ayolni «Dilbar ayol», deyishadi. Ishoning, shunday unvonli ayol, albatta, baxtli bo'ladi. Muomalanil bilmaslik, tilni tiya olmaslik, o'ylamay-netmay so'zlash oqibatida yomon xatolar-ga, fojialarga olib kelishi mumkin. Buvilar, onalar siz tengilarga o'git aytganda: «Oldin o'yla, keyin so'yla!» kabi hikmatni ko'p aytadilar. Muomala madaniyati, uni egallash zarurati haqida murabbiylar ko'p gapirishadi. Muomala ahillik, totuvlik, do'stlik manbai. Yaxshi muomala bilan ne-ne dillar qulfiga kalit topiladi, ne-ne orzularga yo'l ochiladi.

**Nodonlardek yuzlab so'zni qilma qator, Donolardek bir so'z degil lek ma'nodor.**

**Sa'diy SHEROZIY**

**So'z kuchidan yiqilur minbar ham, dor ham, So'z birla chiqar indan ilon – murdor ham.**

**Abu Shukur BALXIY**

**Inson izzati dinidadir, odobi – aqlida, uning ezgu nasabi esa ko'rkam xulqidadir.**

**Yeyingiz, ichingiz, sadaqa beringiz, yaxshi kiyimlar kiyingiz, ammo isrof-u takabburlik qilmangiz.**

**HADISDAN**

**– Ayt-chi do'stim, hayotda qanday bo'lardi, Qizlar tug'ilmasa, ona bo'lmasa?! – O'zing ham dunyoga qaydan kelarding, Onang seni tug'ib, quv nab, kulmasa?!**

Agar qiz bola go'zal, hushqomat, zebiyatlar ham joyida bo'lsayu, muomalasi qo'pol, zardali yoki beandisha bo'lsa, bitta so'z bilan atrofdegilar dilini og'ritsa, ishoning, uni hech kim, hech qachon go'zallarsafiga qo'shmaydi, undan ko'nglililadi. Yana kishi, odatda, libosiga qarab olinishini, biroq kuzatuv aqlga qarab ekanligini eslang. Hech narsa kishi aqlini muomalachalik namoyon etmaydi. Qizlar o'zlariga qanchalar oro bermas-

Lekin muomalada ham me'yordan chiqmaslik zarur. Haddan tashqari shirinsozlik, tilyog'lama-lik, aytgan so'ziga, avvalo, o'zi amal qilmaslik – har qanday odamni obro'sizlantirib qo'yadi. Fikringizni shoshmasdan, o'ylab, samimiyat bilan aytishni o'rganing. Jahlni yutib, aql ishlatadigan yo bir gapdan qoladigan, o'rni kelganda haq gapni aytishdan cho'chimaydigan odamlar lafzi halolligi, muomalasi yaxshiligi bilan obro'-e'tibor topadilar. Yaxshi muomala – baxt-u saodatning kaliti.

**Xotin-qizlar ensiklopediyasidan**



# «Dilmunchoq»ning durdonalari

Iste'dod – millat mulki. Vaqtida kashf qilingan iste'dod sohibi ertaroq o'z hosilini berib, Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmog'i muqarrar. Ona tili va adabiyot ta'limining amaliy ahamiyati o'quvchilarni ona tiliga muhabbat, so'z sehri va jozibasiga, badiiy ijodga, adabiyot va kitobga oshno



## YURT DOVRUG'INI OLAMGA YOY

Ona yurt dovrug'ini,  
Olamga yoy, bolajon.  
Vatanning shuhratiga,  
Qo'shgin chiroy, bolajon.

Ajdodlarning yodini,  
Umrbod yod aylasang.  
Ulug'larning ziyosi –  
Porlagan oy, bolajon.

Mardlikni shior etsang,  
Sohibqiron avlodi.  
G'animlarning qomati,  
Egilgan yoy, bolajon.

Ma'rifat bulog'ining,  
Simir zilol suvidan.  
E'tiqod but, iymon sof,  
Boshda Humo, bolajon.

Ona yurt dovrug'ini,  
Olamga yoy, bolajon.  
Buyuklar qatoridan,  
Egalla joy, bolajon!

Mirzohid MUSAQULOV,  
Samarqand viloyati,  
Qo'shrabot tumanidagi  
42-umumta'lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani  
o'qituvchisi,  
ijodiy klub rahbari

## UZOQ BO'LSIN UMR YO'LINGIZ!

Ona – bag'ringizdir misoli osmon,  
Ona – qo'lingizdan tebrantar jahon.  
Ona – bor mehringiz yo'lim yoritar,  
Ona – poyingizda jannatlar yotar.  
Ona – siz borimsiz, ishonchimdorsiz,  
Ona – siz dunyoda quvonchimdorsiz.  
Ona – duodadir doim qo'lingiz,  
Ona – uzoq bo'lsin umr yo'lingiz!

Mahmud PARDABOYEV,  
42-umumta'lim maktabi o'quvchisi



## DIL IZHORI

«Ko'hna tol beshikdan boshlangan olam,  
Senga iddaolar qilmay sevaman»  
(M. YUSUF)

Meni onam kabi erkalab suyding,  
Seni onam deyman, jonim, jahonim.  
Bir chimdim tuprog'ing aziz men uchun,  
Munis onajonim – O'zbekistonim!

Onamga o'xshaydi oydek jamoling,  
Qalbmida mavjlanar tuyg'ular ummon.  
«Ko'hna tol beshikdan boshlangan olam»,  
Ko'nglim ardog'isan – jon O'zbekiston!

Nurxon XOLDOROVA,  
41-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi



## O'YINQAROQ BOLALIK

Bolalikda qo'g'irchog'im sochlarini,  
Mayda o'rib, do'st tutinib o'ynar edim.  
Suhbattashib kuni bo'yi chin yurakdan,  
Buvim aytdan ertaklardan so'ylar edim.

Qo'ldan qo'yim surati ko'p kitoblarni,  
Qiziqish-u hayrat bilan ko'r ar edim.  
Yozuvlarin o'qiy olmay ming hijjalab,  
Harflar bilan «xafalashib» qolar edim.

Podsho ko'nglim ne istasa hozir damlar,  
Bugun mendan olislashib borayapti.  
Lahza o'tmay o'yinqaroq bolaligim,  
Asta shirin xotiramda qolayapti...

Maftuna SAYFULLAYEVA,  
20-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi

etishda namoyon bo'ladi.

Yosh avlod qalbiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarini singdirish, insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, do'stlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat, halollik tuyg'ularini shakllantirish, ijodiy klublar faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tuman XTB qoshida tashkil etilgan «Dilmunchoq» yosh qalamkashlar klubi a'zolarining ijod namunalari tengdoshlari qalbidan o'z o'rnini topadi, deb umid qilaman.



yosh qalamkashlar ijodiy klubi

## ONAJON

Ona, menga orom berib,  
O'zing orom olmading.  
Ming mashaqqat chekding-u, lek  
Charchamading, tolmading.

Boshim uzra alla aytib,  
Tunni tongga ulading.  
Ne topsang menga ilinib,  
Baxt-u iqbol tilading.

Ulkan tog'lar ojiz erur,  
Bardoshingdan, onajon.  
Quyoshdan-da qalbi qaynoq,  
Quyoshimsan, ONAJON!

Jamoliddin QILICHEV,  
8-umumta'lim maktabi o'quvchisi



## NUR TARALAR DOIM YO'LIMGA

Dunyoga nur taratgan oftob,  
Chin do'stimsan menga, ey kitob.  
Sen borsanki, olam charog'on,  
Sen borsanki, yo'qolar yomon.  
Senda jamdir bilimlar bari,  
Yetaklaysan istiqbol sari.  
Olganimda seni qo'limga,  
Nur taralar doim yo'limga.

Kitob oltin, sahifasi dur,  
Har bir satri marvarid erur.  
Kitob o'qib bo'lgaysan olim,  
Yozuvchimi yoki muallim.  
Ta'riflasam charchamas tilim,  
Dilga jodir sendagi bilim.  
Dunyoga nur taratgan oftob,  
Chin do'stimsan menga, ey kitob.

Anvar SAMIYEV,  
42-umumta'lim maktabi o'quvchisi

(Davomi.)

Boshi o'tgan sonda)

## DONISHMAND AMAKIM – USTOZIM

Amakim haqida sizga aytdim-a hali... Ularning ismlari Qobilboy. O'zlari judayam mehribon, qo'llari ochiq. Ularning bir yaqin do'stlari bor. Ali pishiq deyishadi. Ziqnamas-ku, ammo juda pishiq. Agar 100 chaqirim yo'l 100 tangalik bo'lsa, o'sha joygacha piyoda boradi. Amakim bir kuni shu do'stlarining hangomasini menga aytib berib, rosa kuldirdigandilar.

Emishki, Ali pishiq bir buzog'ini mol bozoriga olib chiqib sotmoqchi bo'libdi. Buzog'ini bir ulovga ortib borish uchun kerak bo'lgan pulni tejash maqsadida, ulovda qariyb yarim kun yurish lozim bo'lgan yo'lni sho'rlik buzoqni yetaklagan piyoda bosib o'tibdi. Ali pishiq amakimning uyiga halloslab kirib kelibdi va «Rosa charchadim, buzoqqa suv berib, o't solib qo'y, azonda bozorga olib chiqaman», debdi. Amakim uning ziqnaligidan, eng yomoni, bechora buzoqni holdan toydirib qiynaganidan jahllari chiqib, do'stlarini urishib beribdilar. «Jonivor, qorning ham rosa ochgandir. Uzoq yo'lni piyoda yurib kelibsan, ol, qorningni to'yg'az», deb hashak solsalar, tinkasi qurigan sho'rlik buzoq yumshoq hashakni yeyish o'rniga uning ustiga yotib olibdi.

Ikki do'st mana shunday hazil-huzul qilib, rosa kulishgan ekan.

Amakim sharqshunos olim bo'lganlar, hozir sog'liqlari tufayli nafaqadalar. Qishlog'imizda, daryo bo'yida «Munchoqtepa» yodgorligi topilgan. Yana «Qirquhujra» degan g'or ham bor. Aytishlaricha, unda qirg'at xona bor emish. Ammo uning ichiga kirishga hech kimning yuragi betlamaydi. Enamning aytishlariga qaraganda, u yerda har kuni yarim tunda qirg'at pari qo'shiq aytarkan. G'ordan parilarning xirgoyisi eshitilib turarkan... Bir paytlar arxeolog olimlar kelib, «Munchoqtepa»dan topilmalar topishganida, amakim u yerdagi har xil yozuvlarni o'qishga yordam berib, mag'zini chaqishga ko'maklashganlar. Shuning uchun qishloq ahli amakimni Qobil donishmand deyishadi.

Do'stlarim bilan ba'zan

ana shu Qirquhujra g'ori oldida o'ynaymiz. Uning og'ziga kelib, ichiga qarab qichqiramiz. Ovozimizni g'or ichi yutib yuboradi, go'yo. Shu desangiz, bir kuni ana shu g'or og'zida o'ynayotib, oyog'im nimagadir urildi. Oyog'im ostiga egilib qaradim, oyog'im urilgan narsa qandaydir yaltiroq temir bo'lagi ekan. Bir tomoni qayrilib, quyosh nuri tegib turgani uchun uning yaltirashi ko'zimni ochishga yo'l bermadi. Temir bo'lagini qo'limga olib ko'rmoqchi bo'ldim. Yerga juda botib ketganligidan tortib olishga qiynaldim. Ola sigirimning qozig'ini olib kelib, bir amallab yerdan uzib oldim, orqasida arab imlosida qandaydir yozuv bor edi. Yerga yopishib yotganligi sabab, yozuv ham xiralashib qolgandi. Darrov daryo qirg'og'iga olib borib, yaxshilab yuvdim. Lekin yozuvni o'qiy olmadim, amakimga ko'rsataman, dedim-da, ovqat xaltamga solib qo'ydim, atrofimdagi do'stlarimga hech nima demadim.

keladiganlar soni behisob. Amakim diniy va dunyoviy ilmlarni suv qilib ichib yuborganlar. O'zlari g'oyat bardam va tetiklar. Keksaydim demaydilar. Har ketmon urganlarida, bamisoli yer larzaga kelgandek bo'ladi. Ketmonlari loyi yoki tuprog'i bilanmi turgan bo'lsa, joyidan bazo'r ko'tarasiz. O'zlari kuragi yerga tegmagan polvonlardan bo'lgan ekanlar.

Kech tushib, quyosh botgach, mollarni oldimga solib, uyga olib keldim va og'ilga bog'lab chiqdim. Ovqat xaltamdan xuddi tilla topgan odamdek, temir bo'lagini olib, amakimning yoniga shoshildim. Amakim bog'dagi ishlarini tugatib, endi shom namozini o'qib bo'lgan ekanlar. Meni ko'rib, darrov yuzlarida nur taraldi va o'rinlaridan turib:

– Mening polvon o'g'lim kelibdi, olim o'g'lim kelibdi, – deya men tomon quchoqlarini ochib turdilar. Men amakimni juda yaxshi ko'raman-da, bir kun ko'rmasam, xuddi yillar ko'rma-

# OLIMJONNING SARGUZASHTLARI YOXUD ZAMON VA MAKON ORALIG'IDA

(Sarguzast-fantastik qissa)



Amakimning kutubxonalari-da kitoblar shu qadar ko'pki, dunyoning kitoblari shu yerda jamlangan deysiz. Ularning ichida o'ngdan chapga yoziladigan arab yozuvi ham, rus tilida ko'chirilgan asarlar ham, eski davrlardagi kitoblar ham bor. Amakim o'z kutubxonalarini xazina deb ataydilar. Uylariga emas, kutubxonalariga o'g'ri tushishidan qo'rqadilar.

Nafaqat qishloqdagilar, balki yurtimizning juda ko'p joylaridan amakimni yo'qlab, ziyoratga

gandek sog'inib qolaman.

Darhol quchoqlariga otildim va topgan narsamni ko'rsatib:

– Amakijon, men bir narsa topib oldim, qandaydir yozuvi bor, – dedim va topgan narsamni amakimga uzatdim.

Amakim temir bo'lagini sinchiklab tekshirdilar-da:

– Polvonim, senga xushxabar, bu temir bo'lagiga «Ezgulik kitobini top», deb yozilgan ekan. Endi uni izlashing kerak, bo'tam. Bu senga muhim topshiriq, bajarishing shart. Buni



Otabek QUVVAT

esa faqat ilm bilan topasan!

Amakimning bu gapiga yaxshi tushunmagan bo'lsam-da, menga qandaydir bir topshiriq berilganligini angladim. Kitobdan izlaymikin? Amakim qachon bo'sh qolsalar, qo'llariga kitob oladilar. «Kitob insonning do'sti, ustoz», deyidilar. Ba'zida esa shunday deya qo'shib qo'yadilar:

– Bolajonim, bizning davrlarga qadar insonga kitobdek yaxshi do'st bo'lmagan. Ammo zamonlar o'tgach, Odam Ato farzandlari o'zlarining zimmlaridagi oliy burchni unuta bormoqdalar. Nafsga berilib, bugun ular hatto mo'tabar ne'mat hisoblangan kitobni ham o'z yovuz maqsadlariga bo'ysundirishga intilmoqdalar. Kitobni behurmat qilib, uning ko'ksiga noto'g'ri, yovuz g'oyalarni o'yib yozmoqdalar.

– Unday kitoblarni o'qib bo'lmaydi, shundaymi?!

– Xuddi shunday, bolam, ulardagi begona g'oya va tushunchalar sen kabi yoshlarning ongini zaharlab, egri maqsadlar yo'lga olib boradi. Bu yo'lning oxiri esa tubsiz jarlik. Unga qulash muqarrardir. Shu sababli, sen, albatta, ezgu g'oyalarni ilgari surilgan, insonlarni yaxshilikka chorlaydigan va odamlarga foydasi tegadigan kitoblarni o'qishing va sen ham bir kuni ulg'ayib, olim bo'lib, ana shunday kitoblarni yozishing kerak.

– Xo'p bo'ladi, amakijon.

– Barakalla, bo'talog'im.

Amakimning bu gaplari mening ongimda yomonlikka, yomonlik yo'lini tanlagan kimsalarga nisbatan nafratimni oshirardi. Bundan tashqari, televizorda turli yurtlarda bo'layotgan urushlarni ko'rganimda, «Men hali shunday dastur yaratayki, u orqali insonning fikrini, ichki dunyosini o'qib olayin va yomonning jazosini berib, yaxshilarga ezgulik yo'lida ko'maklashayin va menga berilgan topshiriqni bajarayin», deya ezgu niyat qilardim...

(Davomi bor)

## ENG, ENG, ENG...

\* Toshkent metropoliteni O'рта Osiyoda eng birinchisi bo'lib, 1972-yildan qurila boshlangan. Ikk qatnov qismining uzunligi 16,2 km bo'lib, Chilonzor, Paxtakor kabi bekatlardan iborat. Eng kenja – Sergeli yo'nalishi ayni damda foydalanishga topshirilish arafasida.



\* Toshkent televizion minorasi 1971–1985-yillarda qurilgan bo'lib, Ostankino (Moskvadan keyin) ikkinchi, O'рта Osiyoda birinchi o'rinda turadi. Uning balandligi 375 metrdi, hajmi 55500 m<sup>3</sup>, metall qurilma massasi esa 6000 tonnani tashkil etadi. 100 metr balandlikda «Qanot» restorani joylashgan. «Qizil» va «Zangori» zallari, kuza-tuv maydonchasi mavjud.



## BILASIZMI?



\* Bo'yining uzunligi bilan Ginnes rekordlari kitobiga da'vogar hamyurtimiz farg'onalik Sherzod Sirojiddinov 1981-yil 9-dekabrda tug'ilgan. Uning bo'yi 2 metr-u 20 sm.ni tashkil qiladi. Vazni esa 137 kg.ga teng.



\* Qoraqalpog'istonda 100 yoshni qarshilaganlar juda ko'p. 114 yoshli Bibixon, 112 yoshli Bekaxon momolar shular jumlasidandir. Shuningdek, Farg'onaning Chimyonida 115 yoshni qarshilagan Boydoda Xo'jayev katta Farg'ona kanali, Farhod GESi qurilishida qatnashgan.

## GAP YOSHDA EMAS...

\* Shoir Mirtemir 16 yoshidan she'rilar yoza boshlagan. Sochma vaznda «Shu'lalar» to'plami bosilib chiqqan.



\* Adib Shukrullo (Yusupov) ham 16–17 yoshlarida she'rilar yoza boshlagan.

\* Nemis shoiri Gyote 80 yoshida dunyoga mashhur «Faust» asarini yozib tugatgan. Ijodkorlardan Viktor Gyugo – 83, Sofokl – 90, Bernard Shou – 94, Mavloni Lutfiy – 99 yoshgacha ijod bilan mashg'ul bo'lganlar.



\* G'azalxon shoir Zokirjon Habibiy o'z ijodini 50 yoshidan boshlagan ekan.

\* 31 yoshida Etel Voynich o'zining dunyoga mashhur «So'na» romanini yozib tugatgan edi. Z. N. Vengarova 1898-yilda bu asarni rus tiliga tarjima qilgan. O'zbek kitobxonlari Voynich ijodi bilan ilk marotaba 1934-yilda tanishdilar. E. Voynich bastakor ham edi. U bir qancha oratoriya, kontata va qo'shiqlar muallifidir. U 95 yoshga kirganida ham ijod qilishni to'xtatmagan.



\* Tinchlik kabutarini mo'yqalamda talqin etgan ispan rassomi Pablo Pikasso 14 yoshidayoq elga tanilgan edi.

Anvar MIRZAYEV to'plagan

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

## «DUNYO BO'YLAB» A-A – TOPQIRLIK MASHQLARI

**Eniga:** 1. Markaziy Osiyodagi avtomobilsozlar shahri. 2. Hududi Yevropa va Osiyoda joylashgan davlat poytaxti. 3. Chiliining shimoliy hududidagi cho'l. 4. Yer sharining shimoliy hududi. 5. Sersuvligi va havzasining kattaligiga ko'ra dunyoda birinchi o'rinda turuvchi daryo. 6. Kanada-ni g'arbidagi ko'l. 7. Avstraliya Ittifoqining janubidagi shahar. 8. Janubiy Amerikadagi davlat. 9. Janubiy yarim sharda joylashgan materik.

**Topshiriq:** Shaklning o'ninchi qatoridagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harfni anglatadi) yuqoridagi javoblardagi harflar bilan almashtirish bilan topshiriqni hal eting. Bunda Yer sharidagi materiklardan birini bilib olasiz.

**Tuzuvchi:**  
Foziljon ORIPOV

1					*	*	*	*	
2					*	*	*	*	
3					*	*	*		
4					*	*	*		
5						*	*		
6						*	*		
7						*	*		
8							*		
9									
10		5/6	6/2	2/4	8/2	1/4	3/2	4/5	7/2

Qarangki, karantin davri hatto uy hayvonlari hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazayotgan ekan. Ba'zilar it yoki mushuklarini boqa olmayotganligi sababli ko'chaga tashlab ketish hollari ko'paydi.

Bunday vaziyatga tushib qolgan jonivorlarni himoya ostiga olish biz odamlarning burchimizdir.

Oilamizning yaqin do'sti, ekolog-jurnalist Nargis Qosimova qarovsiz qolgan mushuklarni imkoni boricha boqishga harakat qiladi. Nargis opa ko'p qavatli uyda yashaganliklari bois, barcha qarovsiz qolgan mushuklarni zimmasiga olish imkoniga ega emaslar. Ayni paytda 5 ta mushuk bolasini parvarishlayaptilar. Bundan tashqari, ko'chada boqadigan mushuklari ham bor.

Bir kuni Nargis opa ko'chada bolalarning mushukchani oyoqlari bilan turtib qiynashayotganining guvohi bo'libdi. Bolalar qancha tepkilamasin, mushukcha ularning izidan borib, tinmay miyovlar va javdiragan ko'zlari bilan ulardan shafqat kutarmish... Nargis opa darrov mashinadan tushib, mushukchani dast ko'tarib olibdilar. Bechora mushukcha ochlik va qo'rquvdan dag'-dag' qaltirarkan.

– Bu ham sizlarga o'xshagan bola-ku, nega tepasizlar? – deb bolalardan norozi bo'libdilar.

Shu mushukcha dadam ruxsat

berganlari uchun ayni paytda biznikida. Nargis opa uni «Ko'zmunchoq» deb nomlagan ekanlar. Bizga ham bu nom ma'qul bo'ldi, chunki uning ko'zlari haqiqatan ham munchoq-

qo'rqardi.

Mana, oradan bir oy o'tdi, u endi qo'rqmaydi, aksincha, bizga ergashadi. Unga xonamizning bir burchagini ajratdik. Ovqatlanishi, suv ichishi uchun idishlar tayyor-

ham o'rganib oldi.

Bir kuni u betob bo'lib qoldi, faqat yotoqchilardi. Avvaliga unga nima bo'lganini tushuna olmadik. Biz uni siladik, siypadik, og'ziga suv tutdik, lekin u boshini ko'tarolmasdi. Ko'zlari g'amgin, quloqlari shalpaygan holda edi. Bir payt u o'rnidan amallab turib, qayergadir bormoqchi bo'ldi. Lekin majolsizligidan yura olmadi. To'satdan u o'qchib, mehmonxonadagi gilamga qayt qilib yubordi. U qilgan ishidan shu qadar uyaldiki, devorga o'girilib, boshini eggancha o'tirib oldi. Uning o'tirishi xuddi ayb ish qilib qo'ygan yosh bolaning holatini eslatdi. Kechga borib uning ahvoli yaxshilandi.

Mushukchamiz yosh boladay o'yinqaroq va yoqimtoy. U oilamiz a'zosiga aylandi. Biz uni juda ham yaxshi ko'ramiz.

Biz mushukchadan tashqari to'tilar boqamiz, gullar parvarishlaymiz. Ular xonadonimizga o'zgacha shukuh bag'ishlaydi, ayniqsa, mushukchamning o'yinqaroqligi kayfiyatimni ko'taradi. Aslida, biz – odamlar atrofimizdagi tabiat va jonzotlar uchun mas'ulmiz. Buni unutmasligimiz kerak.

## XONADONIMIZ KO'ZMUNCHOG'I

*Dunyo miqyosida kechayotgan «Covid-19» pandemiyasi tufayli mamlakatimizda e'lon qilingan karantin davri ko'pchilik uchun ma'lum bir qiyinchiliklar tug'dirayotgani sir emas.*



qa o'xshaydi.

Nargis opa uni biznikiga olib kelganlarida, u hali judayam kichkina va nimjon edi. Bir hovuchgina jonivor, hammadan

ladik.

Ko'zmunchoq juda ozoda, ovqatlanib bo'lgach, yuz-qo'lini yuvadi. Hojat uchun belgilangan joyga, ya'ni maxsus qumga borishni

**Zeboxon SAIDOVA,**  
*poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 314-umumta'lim maktabi o'quvchisi*

## QUYOSH KULIB TURADI



Ukacham bor ukacham, Ko'zlari ko'zmunchoqcham. So'zlari shirin kulcham, Jajjigina ukacham.

Men bilan o'ynaganda, Quvnoq, shodon yuradi. Go'yoki yuzlaridan, Quyosh kulib turadi.

**Nozigul NARZULLAYEVA,**  
*Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi 18-umumta'lim maktabi o'quvchisi*

*Qo'linga tushsa u bas - Tap-tap qo'shig'in aytar. Balandlarga uchib so'ng, Yana ortiga qaytar.*

*Katta, sariq doira, Usiz yerda hayot yo'q. Tiriklikning manbai U borki, ko'ngillar to'q.*

*Chiroyiga yo'q gap-so'z, Tovlanar yetti xil do'st.*

**Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 19-umumta'lim maktabi o'quvchisi**

## TOPLASH MOQLAR



## FOYDALI MASLAHATLAR



\* Po'sti bilan qaynatilgan kartoshkani yorilmasin desangiz, uni bir-ikki joyidan teshib qo'ying.

\* Qovurilgan kartoshka qisirlashi va ta'mi yaxshi bo'lishi uchun 1 choyqoshiq xantal kukuni qo'shib yuboring.

\* Parranda go'shtini qovurishdan oldin biroz tuzli suvga bo'ktirib qo'ying.

\* Muzlatilgan baliqni tezroq eritmoqchi bo'lsangiz, plastik paketi bilan iliq suvga solib qo'ying.



\* Qizil loviyani ta'mini saqlab qolish uchun qaynab chiqqandan keyin suvini to'kib tashlang va yana sovuq suv solib, unga o'simlik yog'idan bir oshqoshiq qo'shing.

\* Mankani tayyorlashdan oldin bir necha marta sovuq suvda yuving.

\* Baliqning tangachalarini suv tagida tozalash osonroq.

\* Go'shtni qovurishdan oldin unga o'simlik yog'i sursangiz, chiroyli bo'lib pishadi.

**NARGIZA opangiz tayyorladi**



Ota-onangiz bilan o'qing!

# FARZANDINGIZ SIZGA MEHRLIMI?

**Farzand tarbiyasi ota-onalar zimmasidagi eng mas'uliyatli vazifa sanaladi. Tarbiyadagi eng samarali, sinalgan usullardan biri esa mehnatdir. Shuningdek, ularda axloqiy tarbiyani shakllantirishga ham alohida ahamiyat qaratish kerak.**

Buyuk ajdodlarimizdan biri Abu Ali ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy, aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirish, uni mukammal inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb hisoblagan.

Mirzo Ulug'bekning oila muhitida sog'lom avlodni kamol toptirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rinni egallaydi.

Bolaga so'z orqali tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bola bilan muloqotga kirishish, shuningdek, uning mehrini qozona olish tarbiyaning asosiy jihatlaridan hisoblanadi. Bu esa o'z-o'zidan bo'lmaydi.

Quyida ota-onalarimizga farzandlar mehrini qozonish uchun ayrim tavsiyalarni bermoqchimiz:

– farzandingizning fikrlari

bilan qiziqing, his-tuyg'ularini anglang, uni tinglang;

– farzandingiz maqsadini, rejalarini qo'llab-quvvatlang;

– farzandingizni tez-tez bag'ringizga bosing;

– xatosini tuzatmoqchi bo'lsangiz, koyimasdan, tanqid qilmasdan tuzating;

– har kuni unga halollikka undovchi, rag'batlantiruvchi so'zlar ayting;

– «ha» so'zini ko'proq ishlatib, «yo'q» so'zidan esa ishonchingiz komil bo'lgandagina foydalaning;

– qilgan ezgu amallari uchun unga tez-tez minnatdorlik bildirib turing.



Latofat HOSILBEKOVA,  
Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 26-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Madina MASHARIPOVA,  
Xorazm viloyati,  
Tuproqqal'a tumanidagi  
5-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi

## RANGLAR JILOSII



Munisa QURBONBOYEVA,  
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 12-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Dilnura  
NURIDDINOVA,  
Abdulla Qodiriy  
nomidagi  
ijod maktabi  
o'quvchisi



**BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70**

**Tong yulduzi**

**Muassis:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi**

**Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir  
Muhammadsharif  
FAYZULLAYEV**  
**Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li**  
**Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV**

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzili va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@gmail.com](mailto:tongyulduzi1929@gmail.com)  
telegram: t.me/tongyulduz  
Adadi – 2232  
Buyurtma – V-4270

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel. /faks: (99871) 244-63-08